

MEVALI DARAXTLARDA BAKTERIOLOGIK KUYISH KASALLIGI VA UNGA QARSHI KURASH USULLARI

Sadullayev Sulaymon Ravshon o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti.

Annotatsiya. Maqolada Mevali daraxtlarda bakteriologik kuyish kasalligi va unga qarshi kurash usullari va mevali daraxtlarning jiddiy kasalliklarining xudullarda tarqalishi yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari berilgan.

Kalit so'zlar: mevali daraxtlar, bakterioz, pestitsid, olma, nok, kimyoviy preparat, erwinia amylovora, kuyish kasalligi.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований бактериологического фитопфтороза плодовых деревьев и методов борьбы с ним, а также распространения тяжелых заболеваний плодовых деревьев..

Ключевые слова: плодовые деревья, бактериоз, пестициды, яблоня, груша, химический препарат, эрвиния амлёвора, ожоговая болезнь..

Abstract. The article presents the results of research on bacteriological blight disease in fruit trees and methods of combating it, as well as the spread of serious diseases of fruit trees.

Keywords: Fruit trees, bacteriosis, pesticide, apple, pear, chemical preparation, erwinia amylovora, burn disease.

Kirish. Urug'mevali daraxtlarning bakterial kuyish kasalligini Erwinia amylovora bakteriyasi keltirib chiqaradi. Bu kasallik bilan asosan ra'noguldoshlar (olma, nok, behi) oilasiga mansub o'simliklar zararlanadi.

Kasallangan daraxtlarning gullari to'satdan so'lib, qorayadi. Barglari buralib, qorayadi va novdalarda osilib qoladi (tushmaydi). Pishmagan mevalar ham qorayib quriydi, tushib ketmaydi.



Olmaning bakterial kuyish kasalligi belgilari.

Novda uchlari yoki guldin boshlangan kasallik avval novdaga, keyinchalik shoxlarga, hatto ildizgacha yetib boradi. Daraxt olovdan kuyganga o'xshab qoladi. Yosh shox va novdalar po'stlog'ining zararlangan joylari keyinchalik gommox eksudat ko'rinishida po'stloqqa oqib chiquvchi suyuqlikdan biroz shishadi. Oqib chiqqan suyuqlik dastlab rangsiz bo'lib, asta-sekin quyilib, qahrabo-sariq yoki to'q qo'ng'ir rangga kiradi. Ana shu oqib chiqqan suyuqlik shu kasallikning boshqao'xshashkasalliklardan farqlaydi.

Kasallikning rivojlanishi. Infeksiya manbai eski bog'lardagi kasallangan daraxt, zararlangan urug' va ko'chat hisoblanib, bakteriyalar yomg'ir tomchilari, zararli hasharotlar, asalarilar, qushlar yordamida tarqaladi. Kasallik bog' asboblari bilan kesish va payvand qilish davrida yuqishi mumkin. Kasallikning inkubatsion davri 3–4 kundan 6–10 kungacha cho'zilishi mumkin. Kuyishning dastlabki belgilari paydo bo'lguncha minimal harorat 14°C dan yuqori bo'lishi zarur. Daraxtlarning zararlanishi havo harorati 18°C va undan yuqori bo'lganda sodir bo'ladi. Bakteriyaning rivojlanishi uchun qulay harorat 30°C bo'lib, 45–50°C da ular o'ladi. Yozda o'simliklar kasallikdan tuzalganga o'xshasada, bahorda daraxt

tanasida suv yugurishi bilan «o'yg'onib», butun o'simlik bo'ylab tarqaladi. Mevalari yosh, pishmagan davrda zararlanadi, pisha boshlagan va pishgan mevalarda kasallik rivojlanmaydi.

Qarshi kurash. Kasallikni qo'zg'atuvchi bakteriya bo'lganligi sababli unga qarshi sepilgan fungitsidlarning hech biri ta'sir etmaydi. Mis sulfati bakteriyani o'ldira olmaydi, biroq uning rivojlanishiga noqulay sharoit tug'diradi. Daraxtlarda kasallik alomatlari bor bo'lsa, 0.5dan 1.0% gacha mis kuparosini aralashmasi (Bordo suyuqligi ham bo'ladi) kurtaklar 0.5sm o'sgan paytda sepib, daraxtning tashqi qismida kasallik ko'payishi oldini olish mumkin. Pakana payvandtaglar kasallikka juda chalinuvchan hisoblanadi. Zararlangan daraxtlarning 5–15% kuzga borib tomirdan quriydi. Gullashdan keyin gul tojibarglar to'kilgandan so'ng kasallik zarari kamayadi, shu sababli azot solishni terimdan keyin yoki kuzda amalga oshiriladi. Gul yoki novdalarda kasallik alomatlari ko'rinishi zahoti ularni kesib olib yo'q qilish kerak, aks holda har bir kechiktirilgan kun sababli keyingi kuni 6 barobar ko'p kesishga yoki zararga to'g'ri keladi.

Olmaning bakterial kuyish kasalligi. Bu kasallik tez tarqaladi, asosan olma, nok, behi va do'lanani kuchli zararlaydi. Zararlangan daraxtlarda kasallik belgilari birinchi barglarda, so'ng yosh novdalarda paydo bo'ladi. Bakterial kuyish bilan kasallangan bog'larda daraxtlarning novda va po'stloqlarning yorilishi, barg va yosh novdalarning qo'ng'ir tusga kirib, kuygandek bo'lib qolishi va kasallangan novda hamda mevalarda yelimga o'xshash suyuqlik, ekseudat chiqib turadi. Bu kasallik bilan daraxtlarning guli, novdasi, bargi, yosh mevalari va yog'och qismlari ham zararlanadi. Kasallik qo'zg'atuvchi bakteriya asosan yomg'ir, shamol, hasharotlar yordamida, daraxtlarga shakl berishda ishlatiladigan asbob-uskunalar va qushlar orqali taqaladi. Kasallikka qarshi kurashishda chidamli navlarni ekish; daraxt oralarini ag'darish, xaydash; azotli o'g'itlarni meyoridan ortiqcha qo'llamaslik; daraxtlarga erta bahorda faqat ularning tinim davrida shakl berish va shoxlarni ko'p kesmaslik; qurigan novda yoki shoxlarni qurigan joyidan 20–25 sm pastidan kesib olish va ularni yo'q qilish; (har bir novda yoki shoxlarni kesishda asbobni dezinfektant eritmasi bilan zararsizlantirish zarur), daraxtlarning payvand taglaridan o'sib chiqqan novdalarini kesib tashlash, kuyish kasalligi bilan kuchli zararlangan daraxtlarni kovlab olib,

yo'q qilish va kimyoviy kurash tadbirlarini o'z vaqtida olib borish kasallikka qarshi yuqori samara beradi. Bakterial kuyish kasalligi bilan zaprarlangan olma daraxtlari uchun kuzda barg to'kilishidan so'ng va bahorda kurtak yozishdan oldin 3 foizli, o'suv davrida esa (gullashdan 10-12 kun keyin) 1 foizli Bordo suyuqligini purkash. Vegetasiya davrida esa olma daraxti gullashdan oldin Fosetil alyuminiy (Fosetyl aluminium salt) ALETEKS 80% n.kuk. yoki FOSETAL n.kuk. preparatlarini 1,5-3,0 kg/ga qo'llash tavsiya etiladi

Xulosa qilib aytganda, bakteriologik kuyish kasalligiga qarshi hech bir fungitsid qo'llanilmaydi lekin bakterianing rivojlanishiga mis qarshilik qiladi, shuning uchun kasallikning alomatlari namoyon bo'lganida bordo suyuqligi bilan ishlov berishimiz kerak. Keyingi navbatda agroteknik tadbirlarni juda yaxshi olib borishimiz lozim, pakana payvanttaglar bu kasallikka tez chalinuvchan bo'ladi. Kasallik daraxtni egallab olgan bolsa uning kuygan novdalarini qirqib to'plab bog'dan chekkaroqda chuqurchada yoqib ko'mib tashlash kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Sheraliyev A. Umumiy qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi. Toshkent, 2008. 201 b.
2. Андреева Н.И. Состояние защиты с.-х. растений от вредителей, болезней и сорняков в Туркменской ССР. Стр. 18-30 в кн.: Научные исследования по защите растений (м-лы Ср.-Аз. планоно-методического сов-я, 8-13 декабря 1958 г.), Ташкент, 1960, 312 с
3. Hamroev A.SH., Azimov J.A., Niyozov T.B., Sottiboev Q.S., Rashidov M.I., Rasulzoda P.X., Zohidov M.M., Tojiev A.X., O'runov A., Abdullaev R., Reyimov S., Pirmonov M., Eshchonov X. Bog', tokzorlarning zarakunandalari, kasalliklari va ularga qarshi kurash tizimi. Toshkent: "Fan", 1995, 160 b.
4. Xasanov B.A., Ochilov R.O., Xolmurodov E.A., Gulmurodov R.A. Mevali va yong'oq mevali daraxtlar, sitrus, rezavor mevali butalar hamda tok kasalliklari va ularga qarshi kurash. Toshkent, 2009, 316 b.